



BO‘LAJAK QISHLOQ XO‘JALIGI MUTAXASSISLARINING KOMPETENSIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI TO‘G‘RISIDA

Buranova D.A.

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kasbiy faoliyat, oliy ta‘lim jarayoni, o‘quv jarayoni, mutaxassislik, qishloq xo‘jaligi, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiya, qobiliyat darajasi, kasbiy faoliyat, kasbiy rivojlanish.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, процесс высшего образования, учебный процесс, специализация, сельское хозяйство, компетентность, компетентностный подход, профессиональная компетентность, уровень способностей, профессиональная деятельность, профессиональное развитие.

Key words: professional activity, higher education process, educational process, specialization, agriculture, competence, competence approach, professional competence, ability level, professional activity, professional development.

Kirish. Har bir sohaning kasbiy faoliyatida mutaxassislarni tayyorlash sifati muammosi so‘nggi paytlarda tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Oliy ta‘lim muassasalari sonining o‘sishi, shu jumladan nodavlat (tijorat) ta‘lim xizmatlarining ham ulushinning ortib borishi oliy ta‘lim sohasida sifatli bilim, jamiyatga kerakli mutahassis tayyorlashga bo‘lgan talablarning yanada ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ta‘lim dargohlari erkin o‘rtasida raqobatining o‘sishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda fan, ta‘lim, sanoat, ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalarning tez sur‘atlarda rivojlanishi oliy ta‘lim dargohlaridan o‘zlarining ta‘lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga oliy o‘quv yurtlari ba‘zan ta‘lim sifatiga zid bo‘lsa ham o‘zlarining asosiy iste‘molchisi - talabalarining talablari va ehtiyojlarini hisobga olishga intiladi. Bu boradagi ko‘p uchraydigan muammolardan biri hozirgi ta‘lim mazmunining zamonaviy iqtisod va sivilizatsiya talablari bilan mos emasligidir.



Kompetensiyaga asoslangan yondashuv dastlab Angliyada ishlab chiqilgan va bu shunday yondashuv bo‘lganki, uning paydo bo‘lishi bevosita ta’lim doirasida emas, balki professional sohaning ma’lum bir buyurtmasiga javob sifatida yuzaga kelgan.

Asosiy muammo – ta’lim tizimining samarasizligi. Bu ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan sezilmoqda. Muvaffaqiyatli mutaxassisning sifat fazilatlarini aniqlash muammosi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan “kompetentlik” va “asosiy kompetensiya” tushunchalari dastlab o‘tgan asrning 1970-yillarda AQShda biznes sohasida qo‘llanila boshlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Dastlab, kompetensiya hattoki maxsus kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan qarama-qarshi qo‘yilgan, ya’ni kompetensiya muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat bo‘lib, unga mustaqil, mahsus universal komponentlar sifatida qarala boshlangan.

Tabiiyki, savol tug‘iladi: “Kompetensiyalarni o‘rgatish mumkinmi?”

Ta’lim sohasi asosiy tushunchalari - bilim, ko‘nikma va malakalar bilan ish yuritadi. Ammo kasbiy soha esa kompetensiyalar bilan shug‘illanadi. Professional soha talab darajasida buyurtma sifatida o‘z e’tirozlarini qayd etishi mumkin. Ta’limning vazifasi olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni kasbiy sohada talab qilinganidek ma’lum bir kompetensiyalar darajasida qayta o‘zgartirishdan iborat.

Muhokama va natijalar. Kompetensiya nima? Kompetensiya bu – ma’lum bir faoliyat yoki harakatni foydali, samarali (yuqori saviyada) bajarish, yana shuningdek ustalik, bilimdonlik, mohirlik bilan amalga oshirish demakdir. Ko‘pgina mualliflar kompetensiyani Evropa Ta’lim Jamg‘armasi (ETJ, 1997) atamasi bilan bog‘lashadi. Bu esa ishga joylashish jarayonlarida nomzodga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi, ya’ni maxsus mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyatiga mos keladi. Ya’ni kompetensiya bu - mutahassisning jamiyatga kerakli (arzirli) masala yoki muammolar to‘plamini hal qilishga qaratilgan harakatlarining samaradorligini baholash natijasi - xarakteristikasidir.

Bilim, ko‘nikma, qobiliyat, motivlar, qadriyatlar va e’tiqodlar kompetensiyaning mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlari sifatida qaraladi, lekin bu belgilar o‘z-o‘zidan insonni butunlay barkamol qila olmaydi.

Kompetensiya bu - talabning ma’lum bir sohada samarali ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan oddiy holatda begona, oldindan belgilangan ijtimoiy talab (me’yor).

Kompetensiya bu - talabning tegishli kompetensiyaga ega bo‘lishi, shu jumladan uning unga va faoliyat mavzusiga nisbatan shaxsiy munosabatidir.

Kompetensiya bu - talabning allaqachon shakllangan shaxsiy sifati (sifatleri to‘plami) va ma’lum bir sohada minimal tajribasi hamdir.



Kompetensiya bu - o'quvchining ma'lum bir sferada samarali faoliyat yuritishi uchun oldindan zarur bo'lgan ijtimoiy talablar (normalar)dir.

Hozirda qishloq xo'jaligida avvalo yuqori malakali, oliy ma'lumotli mutaxassislar-kadrlarning yetishligi o'tkir muammo bo'lmoqda. Davlatimiz uchun qishloq xo'jaligi sohasidagi institutlar va texnikumlarni bitiruvchilaridan iborat yangi avlod vakillarini kerakli tarmoqlarda saqlab qolish masalasi juda muhimdir.

Hozirgi vaqtda ish beruvchilar talablariga javob beradigan mutaxassis tayyorlash uchun avval samarali o'qitish usullari, yetarli rivojlangan moddiy-texnika bazasi, zamonaviy kompyuter-o'qitish vositalari va strategik hamkorlar zarur.

Qishloq xo'jaligining samaradorligi ko'p jihatdan rahbar va mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi va ishbilarmonlik fazilatlariga bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning ahvoli sezilarli darajada o'zgarib bormoqda, endi ular yirik, o'rta va kichik korxonalarining o'zaro yangi tashkiliy sistemasida ishlashlariga to'g'ri keladiki, ular bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ravishda mahsulot ishlab chiqaruvchilar hisoblanadilar.

Hozirda kadrlar tayyorlashning kasbiy tarkibi o'zgardi, ta'lim dasturlari va o'qitish uslublariga nisbatan sezilarli o'zgartirishlar kiritilgan, shuningdek ish beruvchilar bilan hamkorlikda kichik biznes va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun yangi mutaxassislik va predmet(fan)lar joriy etilgan. Agrar soha mutaxassislari uchun kengaytirilgan turli mavzular bo'yicha dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillardan boshlab ish beruvchi o'zining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilab oldi: ta'lim dasturlarini ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish, kasbiy kompetensiyalarni alohida aniqlash(baholash), ta'lim dasturlarini kompetent yondashuv asosida shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy vositalar ta'minotini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni attestatsiyasi va mutaxassislar tayyorlash sifatini baholashda ishtirok etish shular jumlasidandir. Natijada birgalikda o'tadigan tadbirlar rejasi va ijtimoiy sheriklik shartlari ishlab chiqildi, sifatli samarali professional (kasbiy) ta'limni tashkil etish sohasida uzoq muddatli hamkorlik shartnomalari tuzildi, bitiruvchi mutaxassisning kompetensiyalari aniqlab (belgilab) olindi, ta'lim dasturlari mazmunan ekspertiza qilindi, darsliklar tayyorlash va diplom oldi amaliyotlarining mazmuni aniqlandi, yangi fan dasturlari kiritildi.

Shunday qilib kompetent yondashuv talabalar tomonidan bilim va ko'nikmalarni bir biridan o'zaro ajratilgan alohida-alohida holda emas, balki



ularni bir butun holda o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Shunga ko'ra o'qitish metodlari sistemasi o'zgaradi, yoki boshqacha aniqlanadi. O'qitish metodlarini shakllantirish, qurish, tanlash, saralash asosida ta'limda bajarilishi kerak bo'lgan kompetensiya va funksiyalar tuzilmasi yotadi.

Adabiyotlar:

1. Dilfuzakhan Anvarovna Buranova. "Issues of the development of professional competences in the education of agricultural specialists". International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11| Issue-5| 2023 Published: [22-05-2023]. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7960592>.
2. Qulmatova, B. A., Buranova, D. A. (2022). The role of digital technologies in agriculture. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (108), 362-365. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-04-108-46> Doi:<https://dx.doi.org/10.15863/TAS>. Scopus ASCC: 1700.
3. B. Qulmatova, D. Buranova. "Ta'lim jarayonida elektron ta'lim va ananaviy ta'limning integratsiyasi". NamDU ilmiy axborotnomasi. 2020.2-son. 366-373 bet.
4. H. Karimov, B. A. Qulmatova, D. Buranova. "Aqlli qishloq xujaligini yuritişda raqamli texnologiyalarning joriy etish masalalari". «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. TASHKENT, UZBEKISTAN 2021, MARCH 15.
5. H. Karimov, B. A. Qulmatova, D. Buranova. "Qishloq xujaligida raqamli texnologiyalarning joriy etish masalalari". Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021.
6. B. Qulmatova, D. Buranova. "Problems of mathematical modeling in the cultivation of agricultural products" Academic research in educational sciences volume 2 | issue 6 | 2021. Issn: 2181-1385. Scientific journal impact factor (sjif) 2021:
7. B. Qulmatova, D. Buranova. "Oliy ta'limda zamonaviy ta'lim texnologiyarini qo'llashning afzalliklari". Muqallim xam uzleksiz bilimlendiriyu. Nukus. 3/4-2022 жыл. ISSN 2181-7138. Илимий-методикалык журнал. 56-59 betlar.
8. D. Buranova. "Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish". Vol.2 No.4 (2023): Journal of Integrated Education and Research (ISSN: 2181-3558). #2(4). Collection D:
9. D. Buranova. "Qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy-kommunikativ tayyorlash". "Экономика и социум" №3(118). 2024. ISSN: 2225-1545; 2541-9285. www.iupr.ru.
10. D. Buranova. "O'zadacha po uluchsheni effektivnosti ispol'zovaniya bazoy dannyyh studentov v protsessax cifrovizatsii sel'skogo xoz'yaystva"., International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09. Impact factor. Volume-12 | Issue-3 | 2024 Published: [22-03-2024] <https://farspublishers.org>. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10902034>. 1042-1046 bet

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola qishloq xo'jaligi bo'lajak mutaxassislarining kompetentsiyaviy samaradorligini oshirishning ayrim muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda yosh mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, uslublari va texnologiyalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена некоторым проблемам о повышении эффективности компетенции будущих специалистов сельского хозяйства, в нём речь идёт о содержании, методах и технологиях подготовки молодых специалистов.

SUMMARY

This article is devoted to some problems of increasing the efficiency of the competence of future agricultural specialists; it deals with the content, methods and technologies of training young specialists.